



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI

ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOTLAR

*2024-yil 1-dekabr holatiga ko'ra (fermer va
dehqon xo'jaliklarisiz)*

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya
vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar
bazasi asosida shakllantirildi




So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2024-yil 1-dekabr holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari 28 011 tani tashkil etdi, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 22 781 ta.

Shuningdek, ushbu davrga 53 195 ta korxona ro'yxatdan o'tib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,3 foizni tashkil etdi.

Korxona va tashkilotlar soni to'g'risida umumiy ma'lumotlar

(1-dekabr holatiga)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar


(2024-yil yanvar-noyabr holatiga)

2024-yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 4 056 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'sishi kuzatilmoqda. Jumladan: Ulug'nor (76 taga), Qo'rg'ontepa (62 taga) va Buloqboshi tumanida (51 taga) o'sish mavjud. Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko'rsatkichni yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari sohasida – 109 taga, sanoat – 76 taga hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 16 taga ko'paygani bilan izohlash mumkin.


Yillar kesimida soni

(birlikda)




Hududlar kesimida soni

(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)




(2024-yil 1-dekabr holatiga)


Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2024-yil 1-dekabr holatiga 28 011 tani tashkil etdi, ulardan 22 918 tasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 30,4 foiz, sanoat – 18,1 foiz, qurilish – 6,6 foiz, qishloq, o'rmonva baliqchilik xo'jaligi – 5,3 foiz, hududlar kesimda esa eng ko'pi Andijon shahrida – 26,5 foiz, tumanlardan Asaka – 8,5 foiz, Andijon – 8,0 foiz, Shahrixon – 6,8 foiz va Baliqchida – 6,0 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024-yil yanvar-noyabr holatiga)

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2024-yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 3 904 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 3 901 ta;
- yirik korxonalar 3 tani tashkil etdi.


Yillar kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)




(2024-yil 1-dekabr holatiga)


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024-yil 1-dekabr holatiga 22 918 tani tashkil etdi, ulardan 22 781 tasi kichik korxona va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 37,1 foiz, sanoat – 22,0 foiz, qurilish – 8,0 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 6,3 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 5,8 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 4,1 foiz, tashish va saqlash – 3,6 foiz, axborot va aloqa – 1,8 foiz, boshqa turlari – 11,3 foiz.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024- yil yanvar-noyabr holatiga)

Mamlakat iqtisodiyoti "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili-kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2024-yil yanvar-noyabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023-yilning mos davriga nisbatan 160 tadan 269 taga (o'sish 109 taga), sanoat sohasida – 799 tadan 873 taga (o'sish 74 taga) ko'paydi.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024-yil 1-dekabr holatiga)

Hududlar kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Andijon shahrida (27,3 foiz), Asaka (8,5 foiz), Andijon (8,4 foiz), Shahrixon (6,7 foiz) va Baliqchi (6,1 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar

(2024-yil 1-dekabr holatiga)


Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlarning eng ko‘p qismi Asaka (12,1 foiz), Baliqchi (9,6 foiz) va Qo‘rg‘ontepa (8,4 foiz) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Asaka t.	179
Baliqchi t.	142
Qo‘rg‘ontepa t.	124
Marhamat t.	121
Andijon t.	121
Ulug‘nor t.	114
Bo‘ston t.	94
Jalaquduq t.	86
Shahrixon t.	83
Andijon sh.	79
Izboskan t.	76
Oltinko‘l t.	73
Paxtaobod t.	71
Xo‘jaobod t.	63
Buloqboshi t.	40
Xonobod sh.	13

Yillar kesimida soni (birlikda)



Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarida xizmat ko‘rsatish

1 355



113

Baliq ovlash va akvakultura

O‘rmonchilik va yog‘och tayorlash

11



(2024-yil 1-dekabr holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 18,1 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 95,3 foizini ishlab chiqarish sanoati, 2,0 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 1,9 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish va 0,8 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	1 376
Andijon t.	582
Asaka t.	414
Shahrixon t.	373
Xo'jaobod t.	310
Baliqchi t.	252
Oltinko'l t.	241
Qo'rg'ontepa t.	233
Jalaquduq t.	219
Izboskan t.	202
Marhamat t.	192
Buloqboshi t.	171
Bo'ston t.	153
Paxtaobod t.	148
Ulug'nor t.	102
Xonobod sh.	96

Yillar kesimida soni (birlikda)



4 827

Ishlab chiqarish sanoati



102

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



93

Suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



42

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



(2024-yil 1-dekabr holatiga)


O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 53,7 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 30,7 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 15,6 foiz ulushni tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Yillar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	621
Asaka t.	174
Andijon t.	140
Shahrixon t.	132
Bo'ston t.	103
Oltinko'l t.	100
Izboskan t.	86
Baliqchi t.	80
Marhamat t.	73
Xo'jaobod t.	59
Paxtaobod t.	58
Qo'rg'ontepa t.	56
Buloqboshi t.	51
Ulug'nor t.	49
Jalaquduq t.	39
Xonobod sh.	26



Bino va inshootlar qurish

991

568

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish

288

(2024-yil 1-dekabr holatiga)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 8 485 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 62,4 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 30,7 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 6,9 foiz ulushni tashkil etdi

Hududlar kesimida soni
(birlikda)

Andijon sh.	1 981
Asaka t.	687
Andijon t.	675
Baliqchi t.	619
Shahrixon t.	579
Oltinko'l t.	504
Izboskan t.	482
Qo'rg'ontepa t.	454
Jalaquduq t.	447
Paxtaobod t.	395
Xo'jaobod t.	367
Marhamat t.	359
Ulug'nor t.	295
Bo'ston t.	292
Buloqboshishi t.	226
Xonobod sh.	145

Yillar kesimida soni
(birlikda)



5 307

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

2 610

590

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

(2024-yil 1-dekabr holatiga)

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2024-yil 1-dekabr holatiga 1 319 taga yetib, ularning 1 316 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:


mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 5,6 foiz ulushini tashkil etdi;

restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 94,4 foiz ulushini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	472
Andijon t.	122
Asaka t.	99
Shahrixon t.	73
Qo'rg'ontepa t.	62
Baliqchi t.	62
Oltinko'l t.	61
Marhamat t.	52
Jalaquduq t.	50
Ulug'nor t.	49
Izboskan t.	47
Paxtaobod t.	45
Xonobod sh.	37
Xo'jaobod t.	32
Buloqboshi t.	28
Bo'ston t.	28

Yillar kesimida soni (birlikda)



1 245

Oziq-ovqat va
ichimliklar yetkazish
bo'yicha xizmatlar



Yashash bo'yicha
xizmatlar

74

(2024-yil 1-dekabr holatiga)

2024-yil 1-dekabr holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxona va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonining 75,9 foizini;

Axborot xizmatlari va noshirlik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 20,6 foizini;

Ko'rsatuvlar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 3,5 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	148
Marhamat t.	41
Baliqchi t.	39
Xo'jaobod t.	31
Buloqboshi t.	22
Andijon t.	21
Asaka t.	20
Ulug'nor t.	17
Paxtaobod t.	16
Qo'rg'ontepa t.	16
Oltinko'l t.	16
Shahrixon t.	11
Jalaquduq t.	11
Izboskan t.	10
Bo'ston t.	7
Xonobod sh.	5

Yillar kesimida soni (birlikda)



 Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar	130	197	Aloqa 
 Noshirlik faoliyati	38	51	Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyati 
 Kino-videofilmlar,televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish	11	4	Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish 

(2024-yil 1-dekabr holatiga)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 946 ta yoki 92,1 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

ushbu sohadagi korxonalar sonining 96,9 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri keladi;


yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 1,9 foizni tashkil etdi;

yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,2 foizini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	356
Asaka t.	84
Andijon t.	71
Shahrixon t.	67
Oltinko'l t.	61
Baliqchi t.	54
Xo'jaobod t.	50
Izboskan t.	48
Paxtaobod t.	46
Marhamat t.	44
Qo'rg'ontepa t.	42
Jalaquduq t.	42
Buloqboshi t.	28
Xonobod sh.	13
Bo'ston t.	12
Ulug'nor t.	9

Yillar kesimida soni (birlikda)



(2024-yil 1-dekabr holatiga)

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	294
Asaka t.	70
Shahrixon t.	53
Andijon t.	52
Bo'ston t.	48
Marhamat t.	47
Paxtaobod t.	42
Xo'jaobod t.	33
Oltinko'l t.	33
Izboskan t.	27
Qo'rg'ontepa t.	27
Baliqchi t.	26
Buloqboshi t.	21
Jalaquduq t.	20
Ulug'nor t.	18
Xonobod sh.	8

2024-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 2,9 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:



- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 69,6 foizni tashkil etdi;

- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 28,7 foizni;

- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 1,5 foizni;

- havo va suv transporti yo'nalishidagi korxonalar soni 0,2 foizni tashkil etgan.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

(2024-yil 1-dekabr holatiga)

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

Faoliyat ko‘rsatayotgan
tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)

Tadbirkorlik subyektlarining
jamiga nisbatan ulushi (foizda)

19 306

mas’uliyati cheklangan
jamiyat

84,2

1 949

xususiy korxonalar

8,5

1 447

oilaviy korxonalar

6,3

35

aksiyadorlik jamiyati

0,2

181

boshqalar

0,8

(2024-yil yanvar-noyabr holatiga)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	764
Andijon t.	284
Baliqchi t.	236
Qo'rg'ontepa t.	228
Asaka t.	228
Shahrixon t.	214
Ulug'nor t.	188
Oltinko'l t.	183

Izboskan t.	183
Xo'jaobod t.	180
Marhamat t.	167
Jalaquduq t.	154
Paxtaobod t.	145
Bo'ston t.	127
Buloqboshi t.	110
Xonobod sh.	66

(2024-yil 1-dekabr holatiga)

Amaldagi 22 918 ta tijorat korxona va tashkilotlaridan 2024-yil 1-dekabr holatiga mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 19 306 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 37,9 foiz, sanoat – 21,1 foiz, qurilish – 8,9 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 5,9 foiz.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)


Andijon sh.	5 540
Andijon t.	1 587
Asaka t.	1 428
Shahrixon t.	1 296
Baliqchi t.	1 159
Oltinko'l t.	989
Izboskan t.	958
Marhamat t.	946

Xo'jaobod t.	891
Jalaquduq t.	848
Qo'rg'ontepa t.	841
Paxtaobod t.	810
Ulug'nor t.	624
Bo'ston t.	541
Buloqboshi t.	512
Xonobod sh.	336


(2024-yil 1-dekabr holatiga)

2024-yil 1-dekabr holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan Andijon shahrida – 440 ta, Asaka – 307 ta va Baliqchi tumanida – 182 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 765 ta, sanoat – 336 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida– 151 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – 147 ta.

Yillar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	440
Asaka t.	307
Baliqchi t.	182
Andijon t.	115
Oltinko'l t.	114
Qo'rg'ontepa t.	109
Shahrixon t.	107
Jalaquduq t.	105


Marhamat t.	96
Xo'jaobod t.	89
Izboskan t.	71
Bo'ston t.	59
Paxtaobod t.	47
Buloqboshi t.	46
Ulug'nor t.	33
Xonobod sh.	29

(2024-yil 1-dekabr holatiga)

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024-yil 1-dekabr holatiga ko'ra 1 447 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: sanoat – 39,7 foiz, savdo – 27,0 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 13,0 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 8,6 foiz, hududlar kesimda esa eng ko'pi Andijon shahri – 16,6 foiz, Andijon – 14,6 foiz, Asaka – 13,7 foiz va Bo'ston tumanida – 13,1 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	240
Andijon t.	211
Asaka t.	198
Bo'ston t.	189
Qo'rg'ontepa t.	145
Shahrixon t.	106
Oltinko'l t.	90
Buloqboshi t.	71

Izboskan t.	60
Baliqchi t.	36
Xonobod sh.	24
Ulug'nor t.	22
Marhamat t.	19
Jalaquduq t.	16
Paxtaobod t.	13
Xo'jaobod t.	7

(2024-yil 1-dekabr holatiga)


O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Qo'rg'ontepa (11,7 foiz), Ulug'nor (10,5 foiz) va Jalaquduq (10,3 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida soni
(birlikda)

Yillar kesimida soni
(birlikda)

Qo'rg'ontepa t.	929
Ulug'nor t.	835
Jalaquduq t.	821
Paxtaobod t.	727
Asaka t.	621
Andijon t.	616
Baliqchi t.	588
Marhamat t.	547
Xo'jaobod t.	524
Izboskan t.	469
Shahrixon t.	394
Buloqboshi t.	325
Bo'ston t.	291
Oltinko'l t.	273
Xonobod sh.	8
Andijon sh.	1



7 480

Dehqonchilik va
chorvachilik, ovchilik
va bu sohalarda
xizmat ko'rsatish

35

Baliq ovlash
va akvakultura

454

O'rmonchilik
va yog'och tayyorlash

Faoliyat ko‘rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

(2024-yil 1-dekabr holatiga)

O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e‘tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan 324 ta korxonalardan 122 tasi qo‘shma korxonalar va 202 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	132
Andijon t.	23
Oltinko'l t.	19
Asaka t.	18
Izboskan t.	17
Shahrixon t.	17
Jalaquduq t.	15
Buloqboshi t.	14

Xo'jaobod t.	13
Marhamat t.	12
Xonobod sh.	11
Baliqchi t.	9
Qo'rg'ontepa t.	7
Paxtaobod t.	6
Ulug'nor t.	6
Bo'ston t.	5

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Chet el investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2023-yilning mos davriga nisbatan 312 tadan 324 taga (o'sish 12 taga) ko'paydi.

Yetakchi o'rinni 92 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu, viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 28,4 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Andijon viloyati iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya (ulushi 19,1 foiz), Turkiya (ulushi 14,5 foiz), Qirg'iz Respublikasi (ulushi 12,7 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 8,3 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanadilar.

(2024-yil 1-dekabr holatiga)



Mamlakatimizda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami soniga nisbatan eng katta ulushi Andijon shahriga 40,7 foiz, tumanlar orasida esa Andijon – 7,1 foiz, Oltinko'l – 5,9 foiz, Asaka – 5,6 foiz, Izboskan – 5,2 foiz va Shahrixon – 5,2 foiz to'g'ri keladi.

(2024-yil 1-dekabr holatiga)

qo'shma korxonalar

xorijiy korxonalar

40	Andijon sh.	92	9	Xo'jaobod t.	4
11	Andijon t.	12	5	Marhamat t.	7
8	Oltinko'l t.	11	7	Xonobod sh.	4
9	Asaka t.	9	5	Baliqchi t.	4
4	Izboskan t.	13	4	Qo'rg'ontepa t.	3
9	Shahrixon t.	8	4	Ulug'nor t.	2
3	Jalaquduq t.	12	2	Paxtaobod t.	4
8	Buloqboshi t.	6	3	Bo'ston t.	2

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

(2024-yil 1-dekabr holatiga)

qo'shma korxonalar

xorijiy korxonalar



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).


Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016-yil 24-avgustdagi** "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida **2024-yil 1-dekabr** holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining
www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida,
so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib,
axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrnlarni yuritish bo'limi
Tel.: 74 228-29-74

PRESS-RELIZ

